



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	116
Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltojev Mirusmon Mirxamit o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Davlat va korporativ strategiyalar kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: mm.usman@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti bilan bir qatorda hududlar iqtisodiyoti ham izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonda sug'urta sohasi mintaqalarning iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urtaning ahamiyati, uning mintaqalar iqtisodiyotidagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, sug'urta xizmatlarini tashkil etish bo'yicha nazariy qarashlar evolyutsiyasi, sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va turlari, sug'urta tashkilotlarining kapitallashtirish darajasini oshirish, sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda raqamlashtirishning o'rni hamda sug'urtalash uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, raqamlashtirish, hayot sug'urtasi, sug'urta fondi, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, hamkorlik, shartnoma, risk, zarar, axborot texnologiyalari.

Аннотация. В настоящее время в результате проводимых в Узбекистане экономических реформ последовательно развивается не только национальная экономика, но и экономика регионов. В данном процессе страховая отрасль является одной из важнейших сфер, оказывающих влияние на социально-экономическое развитие регионов. В статье рассмотрены значение страхования в условиях цифровой экономики, а также его роль в региональной экономике с теоретической и практической точек зрения. Кроме того, проанализированы эволюция теоретических взглядов на организацию страховых услуг, тенденции развития и виды страхования, вопросы повышения уровня капитализации страховых организаций, роль цифровизации в предоставлении страховых услуг, а также социально-экономические условия формирования финансовых ресурсов, необходимых для страховой деятельности.

Ключевые слова: страховой рынок, цифровизация, страхование жизни, страховой фонд, страховщик, страхователь, сотрудничество, договор, риск, ущерб, информационные технологии.

Abstract. Today, as a result of the economic reforms being implemented in Uzbekistan, both the national economy and regional economies are steadily developing. In this process, the insurance sector is considered one of the key industries influencing regional economic growth. This article examines the importance of insurance in the context of the digital economy and its role in regional economic development from both theoretical and practical perspectives. The study also analyzes the evolution of theoretical approaches to the organization of insurance services, the development trends and types of insurance services, ways to increase the capitalization level of insurance organizations, the role of digitalization in the provision of insurance services, and the socio-economic conditions necessary for the formation of financial resources essential for insurance activities.

Keywords: insurance market, digitalization, life insurance, insurance fund, insurer, insured, cooperation, contract, risk, loss, information technologies.

KIRISH

Dunyoda iqtisodiyotning raqamlashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida sug'urtaning ahamiyatini oshirib bormoqda. Xalqaro yirik qayta sug'urta qilish kompaniyasi "Swiss Re"ning hisobotiga ko'ra, "2022-yil boshida jahonda yalpi sug'urta mukofoti 6,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 9,5 foizga o'sgan". Mazkur o'sishning sezilarli qismi sug'urta texnologiyalarini raqamlashtirish natijasida ta'minlangan. "2023-yilning boshiga kelib esa yalpi sug'urta mukofoti 6,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi".

[1] Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar YalMidagi sug'urta mukofotlarining ulushi 8–12 foizni tashkil qilib,



xususan, 2023-yilning boshida AQShda 12 foiz, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyada 11 foizga teng bo'lgan. Bu esa iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ko'pgina iqtisodchi olimlar, xususan, Y. Abdullayev, H. Sobirov, A. Qodirov, M. Yuldashev, R.H. Husanov, D. Tojiboyeva, A. Yadgarov, I. Abduraxmonov, X.M. Shennayev, Sh.S. Nasretdinova va boshqalar tomonidan sug'urta sohasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan. Ushbu olimlar sug'urtaning kelib chiqishi, sug'urta bozorini tashkil etish hamda sug'urta xizmatlarini keng ko'lamda ko'rsatish yuzasidan o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Sug'urta tushunchasiga ko'plab iqtisodchi olimlar ta'rif berganlar.

Iqtisodiyotda sug'urta xizmatlaridan foydalanishning ilmiy asoslari, uning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar hamda amaliyotchilar tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilgan. Sug'urta xizmatlarining rivojlanishi va hamkorlikning tashkiliy tamoyillarini shakllantirish olimlar va amaliyotchilar L.A. Orlanyuk-Malitskaya, V.F. Narkayev, A.K. Shixov, N.V. Kirillova, Ya.Ye. Telepin, V.V. Shaxov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, V.V. Shixov fikriga ko'ra, iqtisodiy kategoriya sifatida sug'urta xizmatlari pul mablag'larining maqsadli fondlarini tarkib toptirish shakllari va usullarini hamda turli kutilmagan favqulodda hodisalar (xavflar) natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash, shuningdek, fuqarolar hayotida ma'lum voqealar ro'y berganida ularga yordam ko'rsatish uchun yuqorida zikr etilgan fondlardan foydalanishni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir [2].

Yefimov S.L. fikricha, sug'urtalovchi tomonidan taklif etilayotgan "xizmat" o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat "va'dani sotadi", sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida "polis" beriladi, xolos [3].

V.K. Rayxer fikricha, sug'urta markazlashtirilgan manbalar – ishtirokchilarning badallari hisobiga sug'urta fondi tashkil etish shakli demakdir. D. Bland sug'urtani tavsiflashda: "Sug'urtalovchi moddiy ahvolni himoya qiladi, uning egasiga zararlarni qoplash uchun resurslar beradi yoki ruhi va tanasi yoxud sog'liqni tiklash, yoxud uni nogiron sifatida qulay sharoitda saqlash uchun muayyan xarajatlarni taqozo etuvchi shaxsni qo'llab-quvvatlaydi", degan nazariyani ilgari suradi [4].

O'zbekistonda ham sug'urta bozorining dolzarb masalalari hamda xalqaro sug'urta bozorida amalga oshiriladigan sug'urta xizmatlari bo'yicha muayyan tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, sug'urta mahsulotiga X.M. Shennayev sug'urta mahsuloti sug'urtalanuvchilarga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir, deb ta'rif bergan [5].

Aksariyat ishlarda sug'urta jarayoni muammolarini tadqiq etish sug'urtaning umumiy nazariyasi hamda unda sug'urta xizmatlarini rivojlantirishning o'rmini belgilash jihatidan o'tkazilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish tahliliga yetarlicha o'rin ajratilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar bozor ko'rsatkichlari asosida to'plandi. Statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan olindi, ularning tahlilida dinamik, qiyosiy va strukturaviy usullardan foydalanildi. Shuningdek, mintaqaviy sug'urta bozorining tarkibi va rivojlanishi bo'yicha xalqaro tajriba amaliy jihatdan solishtirildi.

Tahlil va natijalar

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiy subyektlarning iqtisodiy mustaqilligi va erkinligi darajasining ortib borishi jarayonida doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va globallashtirish sharoitida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish istiqbollarni tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlari sug'urta bozori subyektlari bo'lgan sug'urta kompaniyalari va tijorat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Sug'urta bozorida turli risklar va xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan hamda takrorlanib turadigan jarayonlarni sug'urtalash, mol-mulkni, hayotni, sog'liqni va boshqalarni sug'urta qilish faoliyati amalga oshiriladi.

2002-yil 5-aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga asosan, sug'urta quyidagi ikki tarmoqqa ajratilgan:

- hayot sug'urtasi;
- umumiy sug'urta.




O'zbekiston sug'urta bozorida 2024-yilda sug'urta kompaniyalari soni 14,6 foizga qisqarganiga qaramay, jami ustav kapitali 10,5 foizga o'sib, 2,3 trillion so'mga yetdi. Investitsiyalarning umumiy hajmi 17,8 foizga oshib, 6,1 trillion so'mni tashkil etdi, bu sektorning barqarorligi va salohiyatidan dalolat beradi. Jami sug'urta mukofotlari 13 foizga oshib, 4,2 trillion so'mni tashkil etdi, bu fuqarolarning sug'urta xizmatlariga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sug'urta to'lovlari 26,4 foizga oshib, 1,1 trillion so'mga yetdi, bu esa sug'urtalangan xavflarning ko'pligi va sug'urtalovchilar tomonidan javobgarlikning oshgani haqida gapirish imkonini beradi. Sug'urta mukofotining YalMdagi ulushi 0,76 %ni tashkil etib, sug'urta texnologiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida keng joriy etishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlari, aholi va butun respublika xavfsizligini ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimi sifatida sug'urta sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda ichki sug'urta bozorini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarining muhim vazifalaridan biriga aylandi. Sug'urta biznesining raqamli transformatsiyasi sug'urta munosabatlarining barcha subyektlariga o'zlarini yangicha ko'rinishda namoyon qilish imkonini beradi, lekin shu bilan birga yangi vazifalarni qo'yadi va risklarni boshqarishni talab etadi, chunki sun'iy intellekt, zararlarni masofadan tartibga solish, raqamli sug'urta xizmatlari va takomillashtirilgan biznes modellari allaqachon amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Sug'urta biznesini raqamlashtirish sug'urta kompaniyasining asosiy texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, sotish kanallarini va sug'urta mahsulotlari qatorini kengaytirish, sug'urtalovchilarga mijozga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Raqamli o'zaro hamkorlikning rivojlanishi fonida sug'urta biznesining rivojlanishiga hissa qo'shadigan adolatli raqobat paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi raqamli iqtisodiyotda sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ichki sug'urta bozorida yangi raqamli texnologiyalarning amaliy qo'llanilishini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazish zarurati bilan bog'liq. Shuningdek, sug'urta munosabatlari ishtirokchilari uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yangi samarali yechimlarni izlash va o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida jismoniy hamda yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini yuqori sifatli himoya qilishni ta'minlash maqsadida sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurati bilan ham asoslanadi (1-rasm).



1-rasm. Elektron tijorat subyektlarining o'zaro ta'sirining konseptual sxemasi

Sug'urta bozorining rivojlanishi elektron tijorat va raqamli sug'urta texnologiyalarini samarali joriy etishga bog'liq. Raqamli sug'urta sug'urta xizmatlarining mavjudligini sezilarli darajada oshiradi hamda sug'urta shartnomalarini tuzish, saqlash va yo'qotishlarni qoplash xarajatlarini kamaytiradi.

Biz sug'urta xizmatlari sohasidagi "elektron tijorat"ni kompleks yondashuv asosida sug'urtalovchilar, sug'urta qildiruvchilar, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari, moliya institutlari, davlat tomonidan tartibga solish, tranzaksiyalar xavfsizligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtiruvchi elementlar ishtirokidagi subyektlarning funksional jihatdan o'zaro bog'liq tizimi sifatida ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaymiz. 1-rasmda elektron tijorat subyektlarining o'zaro ta'sirining konseptual sxemasi keltirilgan.

Sug'urta bozorining rivojlanishi tobora raqamli iqtisodiyotning sug'urta texnologiyalariga ta'sir ko'rsatadigan, ammo uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydigan yangi texnologiyalarni joriy etishga bog'liqdir. Sug'urta faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida:

- sug'urta faoliyatining samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- o'zaro va tijorat sug'urtasining yaqinlashuvi amalga oshiriladi;
- sug'urta munosabatlarining ijtimoiylashuvi amalga oshiriladi;



• sug'urta sohasidagi mehnat bozori o'zgaradi (ayrim sug'urta agentlari hamda quyi va o'rta darajadagi mutaxassislar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlar bilan almashtiriladi).

Sug'urta bozorida raqamlashtirish sug'urtalovchining ish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sug'urta xizmatlari bozoriga elektron tijoratni joriy etish sug'urta qildiruvchilarning moliyaviy va axborot xavfsizligini, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi hamda ularning ehtiyojlarini samarali qondirishga xizmat qiladi. Raqamli sug'urta sug'urta xizmatlarining mavjudligini sezilarli darajada oshiradi va sug'urta shartnomalarini tuzish, zararni qoplash hamda ish yuritish xarajatlarini kamaytiradi. Sug'urta operatsiyalarini raqamlashtirish, to'lovlarni masofadan amalga oshirish, raqamli sug'urta mahsulotlarini joriy etish, sug'urta bozorida adolatli raqobatni ta'minlash, elektron tijorat kanallarini kengaytirish raqamli iqtisodiyotda sug'urta biznesini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Insurance: Inflation Risks Front and Centre. – Swiss Re Institute, Sigma, № 4, 2022.
2. Шахов В.В. Страхование: учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2003. – 311 с.
3. Ефимов С.Л. Энциклопедический словарь. Экономика и страхование. – М.: Церих-ПЭЛ, 1996. – С. 347.
4. Insurance: Principles and Practice / Compiled by David Bland. – The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.
5. Shennayev X.M., Xalikulova G.T. Sug'urta marketingi: o'quv qo'llanma. – T.: Yangi nashr, 2012. – 212 b.
6. OECD. The Digital Transformation of the Insurance Sector. – Paris: OECD Publishing, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>